



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK JIHATLARI

Djoldasov Rasul Farxadovich ,
Nukus davlat pedagogika instituti
doktoranti

rasuljdoldasov31@mail.ru

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash muammosining psixologik – pedagogik jihatlari qaratilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda psixologik-pedagogik yondashuvning mohiyati haqida fikrlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mashg‘ulot, pedagogika, jismoniy tarbiya, estetik jihat, ta‘lim, tarbiya, muammo, estetik tuyg‘u, jarayon.*

Komil insoniy tarbiyalash sohasidagi vazifalarni bajarishda maktablar, litseylar, kollejlari, institut va universitetlarda berladigan g‘oyaviy bilimlar nazariy va amaliy tushunchalar, sport mashg‘ulotlari g‘oyat katta ahamiyatga ega. Shu jarayonda yoshlarga Vatanga muhabbat, yurtga sadoqatlik, mehnatga munosabat tushunchalari singdiriladi. Qisqasi, kelajakda jamiyat uchun sog‘lom fikrlaydigan, baquvvat, jismonan har ishga tayyor yigit-qizlarni tayyorlash barchaning oldida turgan muhim vazifa sanaladi [1].

Shu jarayonda sportning eng qadimgi sanalgan, milliy xalq o‘yinlariga ham alohida ahamiyat berish lozim. O‘zbek xalqining milliy o‘yinlari orqali yoshlar chaqqon, epchil, xushyor, sezgir bo‘lib kamol topadi. Albatta, bu o‘yinlar xalq tomonidan kashf qilingan bo‘lib, ma‘lumotlarga qaraganda mingdan ziyod turi mavjud ekan. Har joyning etnik xususiyatlariga ko‘ra o‘sha joyga mos xalq o‘yinlari bor. Eng ko‘p tarqalgan turi harakatli o‘yinlar ekan. Xalq o‘yinlari mustaqil yurtimiz uchun zarur bo‘lgan sog‘lom, baquvvat, ruhan kuchli, xushchaqchaq, farzandlarni voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Ta‘lim tizimidagi o‘quv predmetlari asosan o‘zlashtirish jarayonining psixologik-pedagogik asoslarining muhimligi va ta‘limning boshqa sohalaridagi o‘rni hamda mohiyatini inkor etmagan holda bu ishlarni jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlariga ahamiyatini alohida e‘tirof etish joiz. Zero, ushbu jarayonda birinchidan, shaxsning individual imkoniyatlarini bajarilishi lozim faoliyatga safarbarligi talab etilsa (tibbiy- fiziologik, ruhiy intellektual, amaliy xarakterdagi ko‘rsatkich, malaka ko‘nikma, nazariy bilim va hakoza), ikkinchidan, bevosita DTS talablarida nazarda tutilgan jismoniy rivojlanishdan tashqari barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy qismi estetik tarbiya amalga oshiriladi. Shuning uchun



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

ham estetik tarbiyaning mazkur psixologik aspektlari shaxs, uning tuzilishi va estetik salohiyati qiziqishi va uning shaxs tuzilishidagi ahamiyati kabilar kiritilgan.

Yoshlarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishi uchun zarur bo‘lgan – yosh xarakteristikasi, individual xususiyatlari (bilim, kuzatish, tarbiya, tafakkur) xis etishi hamda jismoniy tarbiyaga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir [3].

Sportning har xil turlariga, shu jumladan, milliy an‘anaviy turlariga, ularning estetikasiga hissiy qiziqish bu hissiy kechinmalar yoshlarni jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda estetik tarbiyalashning psixologik jarayonlari bo‘lib, tadqiqot natijalari kutilgandek samara berishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning estetik tarbiyalash jarayonlarida avvalo, quyidagi ta‘limiy-tarbiyaviy xususiyatlarni hisobga olish lozim:

- ulg‘ayish va ijtimoiy tiklanish, faollik, mustaqillik;
- yangi mazmundagi estetik mashg‘ulotlar, taassurotlar, hissiyotlar, kechinmalar, intilishlar, qiziqishlar va ehtiyojlar;
- o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga ta‘sir etish, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini boshqarish;
- intelektni rivojlantirish;
- nazariy fikrlar, ijodiy uyg‘onish, tarbiya estetik tarbiya, yangi bilimlarga chanqoqlik;
- inson omili bilan bog‘liq muammolarga qiziqish;
- o‘z qiziqishlari bo‘yicha egallaydigan bilimlari barqaror doirasini aniqlashga intilish, asosiy sport turiga qiziqishni aniqlashdan iborat [2].

Jismoniy tarbiya darslarida yuqorida ajratib ta‘kidlangan psixologik xususiyatlaridan quyidagilar alohida diqqat markazida bo‘lishi talab etiladi.

- mustaqillik;
- qiziquvchanlik (estetik, san‘at, sportga qiziqish);
- bilimga bo‘lgan faollik;
- aqliy qobiliyat;
- o‘z-o‘zini mukammallashtirish (kamolotga yetkazish)ga intilish;

O‘quvchilarning jismoniy tarbiyalashda kuchli psixologik ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan omillardan unumli foydalanish ham estetik tarbiyaning muhim jihati hisoblanadi.

O‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida estetik qiziqish va ehtiyojni shakllantirishning pedagogik asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘quv va darsdan tashqari sifatlar xususiyatlari, ularning nazariy – amaliy xarakterlarning



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

konseptual – pedagogik qoidalari, ularda ushbu qiziqishni shakllantirish va ularni estetik tarbiyalashdagi imkoniyatlar, muammolarni amaliy hal etishning maqsadli yo‘nalishlari, yo‘naltirilganligi, vazifalari, uni amalda hal etishga pedagogik yondashuv jarayonining modeli, uning tuzilishi, mazmuni bosqichlari tasnifi, jarayoning muqarrarligi, materiallarning yo‘naltirilganligi o‘quvchilarda estetik tarbiyani amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shadi.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash joizki, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashdan ta’lim jarayoniga psixologik-pedagogik yondashuvga asoslangan tarzda amalga oshirilishi o‘quvchilarda estetik shakllanishni ijobiy kechishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Аннамуратова С.К. Педагогические основы эстетического воспитания старшеклассников во внеклассной работе: Дис. ... доктора пед. наук. – Т., 1991. – 428 с.
2. Махмудов Б.А. Бошланғич синф ўқувчиларини миллий ҳаракатли ўйинлар воситасида эстетик тарбиялашнинг дидактик имкониятлари. п.ф.ф.д.дисс. – Нукус, 2018. – 135 б.
3. Махмудов В.А. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning pedagogik tafakkurini rivojlantirish. / “Мамлакатимиз олий таълим тизимида жисмоний маданият мутахассисларини касбий назарий ва амалий тайёргарлигини такомиллаштириш” халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Фарғона – 2023 й. 232-233 б.